

## III qism Atrofimizdag'i olam





## Jonli va jonsiz tabiat



Tasavvur qiling, shahringizda maysalar ham, o'simliklar ham, gullar ham, daraxtlar ham bo'lmasa! Yashil tabiat bilan birga qushlar, hasharotlar, jonivorlar ham yo'qolib ketadi. O'rmonlar, bog'lar, tomorqalar yo'q. Faqatgina beton, metall va shishadan yasalgan uylar, binolar va ko'chalar qoladi.



Mana bu suratga qarang. Xayolan undagi barcha yashil ranglarni olib tashlang. Barcha yashil narsalarni kulrangga bo'yalgan, shahardagi barcha o'simlik va daraxtlarni yo'q deb tasavvur qilib ko'ring. Bunday manzara sizga yoqqan bo'larmidi?



**Toshkent**



Atrofimizda inson qo'li bilan yaratilmagan barcha narsa tabiat deb ataladi. Tabiat – bu yer, osmon, quyosh, havo, tog'lar, tekisliklar, cho'l-u biyobon, sahrolar, suv, hayvonot olami, nabotot olami va nihoyat, insonning o'zidir.



Tabiatning ajoyib kitobini ko'rib chiqing.  
Bu yerda nimalar tabiatga tegishli va nimalar tabiatga tegishli emas? Nima uchun?



Tabiat **jonli** va **jonsiz** bo'ladi. **Jonli** tabiatdagi narsalar o'zgaradi, o'sadi, nafas oladi, oziqlanadi. Jonli tabiat – bu sayyoramizdag'i barcha jonli narsalardir: insonning o'zi, o'simliklar, jonivorlar, bakteriyalar. **Jonsiz** tabiat esa tog'-u toshlar, tuproq, suv, daryolar, dengizlar, bulutlar, osmon, sayyoralar, yulduzlardan iborat.



Qaysi belgilar jonli tabiatga, qaysi belgilar jonsiz tabiatga tegishli ekanini aniqlang.

Tug'iladi

O'sadi, o'zgaradi

Ko'paymaydi

Halok bo'ladi

Nasl beradi

Harakatlanadi

Nafas oladi

Oziqlanadi

Oziqlanmaydi

Nafas olmaydi



Mana shu gaplardagi jonli va jonsiz tabiat vakillarini toping. Nima uchun ularni jonli yoki jonsiz deb hisobladningiz?

1. Ko'Ining atrofi baland tog'lar bilan o'rالgan.
2. Osmonda katta burgut uchib yuribdi.
3. Daryoda baliqlar suzib yuribdi.
4. Shamolda daraxtning shoxlari qimirlayapti.
5. Tog'larda qor qoploni yashaydi.
6. Ayiq faqat baliqni emas, qo'ziqorin va mevalarni ham yaxshi ko'radi.



Bir nechta jonli va jonsiz tabiat jismlarining rasmini chizing.